

## O'RTA OSIYO TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH TARIXI. BUYUK ALLOMALARNING LINGVISTIK QARASHLARI VA ASARLARI

*Dadabayeva Hayotxon Faxridin qizi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*4-bosqich talabasi*

*[Tel:+998971102284](tel:+998971102284)*

*E-mail:[dadabayevahayotxon@gmail.com](mailto:dadabayevahayotxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunga kelib turli sohalar ichida o'z o'rniga ega bo'lgan tilshunoslik sohasi paydo bo'lishi va rivojlanishi o'z tarixiga ega. Bu yo'nalishda nafaqat G'arb olimlarining hissasi balki Sharq allomalarining ham o'rni beqiyosdir. Mazkur maqolada bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Abu Rayhon Beruniylarning lingvistik qarashlari hamda tilshunoslikka oid asarlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** uyg'onish davri, tilshunoslik, tibbiyot, tarix, falsafa, morfologik, morfema, sintaktik, chog'ishtirma, dorivor, adabiyot, O'rta Osiyo, Yevropa, Saydana.

**Abstract:** The emergence and development of the field of linguistics, which has taken its place among various fields, has its own history. In this direction, not only the contribution of western scientists, but also the role of eastern scientists is incomparable. This article talks about the linguistic views of our great-grandfathers Alisher Navoi and Abu Rayhan Beruni and their works on linguistics.

**Key words:** renaissance, linguistics, medicine, history, philosophy, morphological, morpheme, syntactic, conjugation, medicine, literature, Central Asia, Europe, "Saydana".

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda milliy tafakkur yuqori darajaga ko'tarildi. Aynan ushbu davrda O'rta Osiyo juda ko'p fanlar poydevori, asosini yaratgan buyuk allomalar dunyoga kelgani bois u **birlamchi Uyg'onish davri** deb ham yuritiladi. Buyuk bobokalonlarimiz bo'lgan Abu Rayhon Beruniy, Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Farg'oniy kabi qomusiy olimlarning matematika, kimyo, geodeziya, astronomiya, tibbiyot, musiqa, tarix, falsafa kabi qator fanlar bo'yicha yaratgan asarlari jahonning durdona asarlari sifatida butun dunyoda e'tirof etiladi. Ayni paytda buyuk allomalar tomonidan bevosita tilning fonetik, morfologik, sintaktik qurilishi, so'zning ma'no xususiyatlariga bag'ishlangan asarlar ham yaratilganki, bu O'rta Osiyoda tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qilmay qolmadi. Xususan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va o'z o'rnini egallashida hamda keyingi taraqqiyotida buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Biroq Navoiygacha bo'lgan davrda yaratilgan

barcha ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar fors tilida yozilgani bois O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanish va rivojlanish davrini 2 davrga:

- Navoiygacha bo'lgan davr.
- Navoiydan keyingi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin.

**Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari.** Jahon tilshunosligi tarixida katta obro'-e'tiborga sazovor bolgan Alisher Navoiy butun faoliyatini o'zbek madaniyatini dunyoga tanitish, o'zbek adabiy tilining mavqeini baland ko'tarishga bag'ishladi. Alisher Navoiy o'zigacha bo'lgan turkiyo'g'y shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Gadoiy va Mavlono Lutfiylarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Lekin forsiy shoirlar qarshisiga chiqadigan, ular bilan dadil bellasha oladigan yolg'iz Mavlono Lutfiydan o'zga shoir paydo bo'lmaganidan afsuslanadi. Hamon badiiy adabiyotda fors-tojik tili yetakchilik qilmoqda, o'zbek tilining imkoniyatlari yashirin qolmoqda edi. Alisher Navoiy bu haqida bunday yozadi: "Bu alfoz va iboratda bu navh daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga degincha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmag'on jihatdin bu yashurun qolibdur... va filhaqiqat, agar kishi yaxshi mulohaza va tammul qilsa, chun bu lafzda vushat (kenglik) va maydonida muncha fusxat (ochiqlik) topilur..." Shoir turk (o'zbek) tilini xazina, chamanzor hisoblaydi. Bu shunday xazina va chamanzoriki, atrofi el oyog'i yetishidan asralgan va qimmatbaho narsalarga boshqalarning qo'li tegishidan saqlangan. Fors-tojik adabiyoti o'zbek adabiyotiga nisbatan ancha qadimiy va boy tajribaga ega bo'lganligi, bu tilda hatto qofiya-lug'at kitoblari ham yaratilganligi tufayli fors-tojik tilida ijod qilish bir muncha osonroq edi. Shuning uchun ham ko'pgina turk (o'zbek) shoirlari o'z ona tillarida emas, balki fors-tojik tilida ijod qilar edilar. Natijada o'zbeklarning ma'lum guruhi fors-tojik tilidagi adabiyotlardan bahramand bo'lsalar ham, lekin ko'pchiligi badiiy adabiyotdan bebaxra qolayotgan edi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida yozadi:

Forsi el topdi chu xursandliq

Turki dog'i topsa barumandliq.

**Alisher Navoiy-chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistikaning asoshi.** Alisher Navoiy o'z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go'zalligi, tarovatini amalda ko'rsatish bilangina cheklanib qolmadi. Ona tilini o'sha davrda badiiy adabiyot uchun an'ana bo'lib qolgan fors tiliga qiyoslab, bu tildan hech qolishmasligini, hatto ba'zi o'rinlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ham isbotlab bermoqni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ana shu maqsadda 1499-yilda ikki til muhokamasiga-ikki tilning chog'ishtirma grammatikasiga bag'ishlangan maxsus asarini-"Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratdi. Alisher Navoiyning bu asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo'nalishiga asos solindi. Chog'ishtirma tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, ikki tizimga mansub bo'lgan tillar tilning barcha sathlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o'ziga

xos xususiyatlari ochib beriladi. Tilshunoslik tarixida chog'ishtirma tilshunoslikning paydo bo'lishi G'arb tilshunoslarining nomi bilan bog'lanadi va bu tilshunoslik yo'nalishining boshlanishi XIX asrdan deb belgilanadi. Bu fikrlar G'arb olimlarining Alisher Navoiy asarlaridan bexabarligidan paydo bo'lgan. Agar boxabar bo'lganlarida edi, Alisher Navoiyning lingvistik merosidan hayratga tushgan va so'zsiz uni chog'ishtirma tilshunoslikning otasi deb hisoblagan bo'lardilar. Chunki "Muhokamatul-lug'atayn" asarida chog'ishtirma tilshunoslikning barcha belgilari mavjud. Birinchidan, solishtirish uchun turli tizimdagi tillar olinadi. Turkiy tillarga mansub bo'lgan turk(o'zbek) tili bilan hind-ovrupa tillarining eroniy tarmog'iga oid sart (fors-tojik) tili o'zaro muqoyasa qilinadi. Ikkinchidan, solishtirish uchun keltirilgan daliliy misollar tasodifiy bo'lmasdan, tilning butun tizimini qamrab oladi. Alisher Navoiy tilshunoslikning bir qator sohalari-fonetika, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis masalalar yuzasidan fikrlarini bayon qiladi.

**Abu Rayhon Beruniyning lingvistik qarashlari.** Dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, fan tarixida juda katta iz qoldirgan qomusiy olimlarimizdan yana biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniydir. U o'z davridagi barcha fan sohalari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida "Xronologiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Minerologiya", "Mas'ud qonuni" hamda "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lgan "Kitob as-saydana fit-tibb", asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganildi va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr etildi. Beruniy ilmiy xazinaning kaliti sanaluvchi tilga va tilshunoslikka alohida e'tibor berdi. U yoshligida yunon, lotin, arab, fors, so'g'd, suryoniy tillarini chuqur o'rgandi. Chunki jahon sivilizatsiyasining beshigi Yunoniston va Rumo o'lkalari bo'lib, antik madaniyat namunalari barchasi shu tillarda yozilgan edi. Beruniy umrining so'nggi yillarida dorivor o'simliklar, hayvonlar va ma'danlar tavsifiga bag'ishlangan "Saydana" asarini yozdi. Beruniyning tilga va tilshunoslikka bo'lgan qarashlari mana shu asarida yaqqol namoyon bo'ladi. "Saydana" ning kirish qismida muallifning yoshlik yillarida o'zini qurshab turgan olamni va undagi narsalarni turli tillarda qanday nomlanishini bilishga naqadar ishtiyoqmand ekanligini bayon qilinadi. "Saydana" asarini yozish uchun muallif yoshligidan dunyoning turli mintaqalarida o'zi bevosita ko'rgan va yozib olgan dorivor moddalarni berish bilangina cheklanmaydi. Balki o'zigacha bo'lgan barcha olimlarning yozib qoldirgan ilmiy merosini sinchiklab o'rganib, ulardan samarali foydalanadi. Asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomi izohlanadi. Har bir bob bir harfga bag'ishlanadi. Beruniy bu asarida arabcha, yunoncha, suriyacha, forsha, xorazmiycha, sug'dcha, turkcha va boshqa tillardagi o'simlik, hayvon, minerallar va ulardan tayyorlanadigan dorivorlar nomlarini to'playdi va izohlaydi. "Saydana" asari dorivor moddalar lug'atiga aylanadi. U lug'atning xarakterli xususiyati shundaki, muallif foydalanuvchilarga oson bo'lishi uchun dorivor

moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtirgan. Bu lugʻat bir vaqtning oʻzida ham izohi, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lugʻatning ilk namunalaridan sanaladi. Beruniy morfologik birlik boʻlgan morfemalar haqida, yaʼni soʻzning maʼnoli birliklari haqida ham fikr yuritadi va ularni oʻzak hamda oʻzak boʻlmagan (affiks) turlarga ajratadi. Beruniy dunyo tillari, ularning farqli xususiyatlari, leksikografiya, etimologiya, grammatika masalalari boʻyicha oʻzining maʼlum qarashlarini bayon qildi va bu bilan tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi va lingvistik taʼlimotning rivojiga maʼlum hissasini qoʻshdi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning paydo boʻlishi va fan sifatida rivojlanishi boshqa turdosh sohalarning rivojiga ham oʻz hissasini qoʻshgan. Dunyo taraqqiyotining tamal toshini qoʻygan buyuk allomalarimiz tilshunoslik sohasida ham oʻzlarining zalvorli asarlari bilan tilshunoslik tarixida munosib iz qoldirishgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.-T.,2007/2010.
2. Nurmonov A, Iskandarova Sh. Umumiy tishunoslik.-T, 2007.
3. Umarxoʻjayev M. Umumiy tilshunoslik.-Andijon, 2010.
4. Шарафутдинова Н.С. Теория и история лингвистической науки-2007.
5. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.-T, 2008.